



ADABIY MANBALARNING MATNIY TADQIQI MASALASI

Shirinova Nargiza Nuriddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universitetining

2-kurs tayanch-doktoranti

Email: shirinovanargiza1605@gmail.com

Annotatsiya: Matn tadqiqi qo'lyozma asarning adabiy manba sifatidagi qimmatini baholash, badiiy asar matni haqida to'liq tasavvur paydo bo'lishida obyektiv asos bo'lib xizmat qiladi. Qo'lyozma agar u she'rlar to'plami bo'ladigan bo'lsa, matnshunos oldida ikki vazifa ko'ndalang turadi. Birinchisi, qo'lyozmaning tarixi va taqdirini o'rganish, ikkinchisi esa, undagi asarning matnini tahlil qilish. Birinchi holatda matnshunos manbashunoslar kabi qo'lyozmaning tavsifiy belgilari, tuzilishi, tadqiq obyektiga aylanguncha bo'lgan davrdagi taqdiri, umumiy tekstologik belgilarini o'rganadi. Ikkinchi vazifa matnshunosning bosh vazifasi bo'lib, matn tahlilini amalga oshiradi. Bu holatda uning oldida asarning badiiy qimmatini belgilash uchun chuqur poetik tahlilni amalga oshirish, muallif g'oyaviy dunyoqarashini ochib berish va uning badiiy mahorati darajasini belgilash vazifasi turadi. Tadqiqotchi o'z maqsadiga erishish yo'lida muallifning diniy, falsafiy, badiiy tafakkur olamiga kirishga majbur. Agar qo'lyozma didaktik yoki so'fiyona mazmundagi asar bo'lsa, matnshunos muallif pozitsiyasini, uning o'z davri ijtimoiy muammolariga bo'lgan yondashuvini tadqiq etib, asarda tilga olingan voqealar, ta'limotlar talqinini obyektiv va subyektiv jihatlarini ochib beradi.

Maqolada bugungi kunda matnshunos tadqiqotchilar tomonidan amalga oshiriladigan adabiy manbalarni tadqiq qilish masalasi, bu jarayonda duch kelinadigan murakkabliklar, matn tadqiqini amalga oshirishdagi dolzarb muammolar haqida qisqacha fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, tabdil, qo'lyozma, toshbosma, tadqiq, izofa, manba, tadqiqot.

THE PROBLEM OF TEXTUAL STUDY OF LITERARY SOURCES

Abstract: Textual research serves as an objective basis for assessing the value of a manuscript as a literary source, for creating a complete picture of the text of an artistic work. If the manuscript is to be a collection of poems, the textual scholar has two tasks. The first is to study the history and fate of the manuscript, and the second is to analyze the text of the work in it. In the first case, the textologist studies the descriptive signs, structure, fate of the manuscript before it became the object of research, and general textological signs, like source scholars. The second task is the main task of the textualist and performs text analysis. In this case, he is faced with the task of performing a deep poetic analysis to determine the artistic.



value of the work, revealing the author's ideological worldview and determining the level of his artistic skill. In order to achieve his goal, the researcher is obliged to enter the author's world of religious, philosophical and artistic thinking. If the manuscript is a work of didactic or Sufi content, the textologist will study the position of the author, his approach to the social problems of his time, and reveal the objective and subjective aspects of the interpretation of the events and teachings mentioned in the work.

In the article, the issue of researching literary sources carried out by textual researchers today, the complexities encountered in this process, and the actual problems in the implementation of text research are described.

Key words: artistic text, translation, manuscript, lithograph, research, addition, source, research.

ПРОБЛЕМА ТЕКСТУАЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация: Текстологическое исследование служит объективной основой для оценки ценности рукописи как литературного источника, для создания целостного представления о тексте художественного произведения. Если рукопись должна представлять собой сборник стихов, перед текстологом стоят две задачи. Первый – изучить историю и судьбу рукописи, второй – проанализировать содержащийся в ней текст произведения. В первом случае текстолог изучает описательные признаки, структуру, судьбу рукописи до того, как она стала объектом исследования, и общие текстологические признаки, подобно источниковедению. Вторая задача является основной задачей текстуалиста и осуществляет анализ текста. В этом случае перед ним стоит задача провести глубокий поэтический анализ для определения художественной ценности произведения, выявления идейного мировоззрения автора и определения уровня его художественного мастерства. Для достижения своей цели исследователь обязан войти в авторский мир религиозно-философской и художественной мысли. Если рукопись представляет собой произведение дидактического или суфийского содержания, текстолог изучит позицию автора, его подход к социальным проблемам своего времени, выявит объективные и субъективные стороны интерпретации событий и учений, упомянутых в тексте. работа.

В статье описывается проблема исследования литературных источников, осуществляемая сегодня исследователями текста, сложности, возникающие в этом процессе, а также актуальные проблемы при осуществлении исследования текста.

Ключевые слова: художественный текст, перевод, рукопись, литография, исследование, дополнение, источник, исследование.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sharq qo'lyozmalarini o'rganish, xalqimiz mulki bo'lgan turli qo'lyozma manbalarni topish, tadqiq qilish va nashr etish.





ishlarining keskin jonlanishi, ayniqsa, milliy uygʻonish, milliy iftixor va gʻurur mafkurasi asosida oʻtmish ijodkorlarimiz asarlarini oʻrganish matnshunoslik sohasining jiddiy rivojlanishiga turtki berdi. Yuzlab qoʻlyozma manbalar hozirgi oʻzbek imlosiga transliteratsiya qilinib chop etildi. Biroq shu bilan birga respublikamizda badiiy asarlar matni tarixini oʻrganish sohasida uzoq yillar davomida yigʻilgan tajribaning ommalashtirilmagani, matnshunoslikning tadqiqot usullaridan bexabarlik oqibatida nashr yuzini koʻrgan manbalarning ilmiy-badiiy ahamiyati va yozma yodgorlik sifatidagi qimmatini toʻliq koʻrsatishga erishilmadi. Matnshunoslik sohasining vazifalari, tasnifi, nashr tiplari va prinsiplarining sistemalashtirilmaganligi matn tarixi tadqiqiga qoʻl urayotgan adabiyotshunoslarimizga manbalarni ilmiy isteʼmolga kiritish ishlarida muayyan qiyinchilik tugʻdirdi. Natijada bu sohada muayyan oqsoqliklar paydo boʻldi. Ayni vaqtda maʼnaviy-maʼrifiy sohadagi islohatlar samarasini oshirish zarurati bu yoʻnalishdagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarishni davr talabiga aylantirdi.

Yurtimizda oʻtgan asrning boshlaridan davom etib kelayotgan Sharq qoʻlyozmalarini oʻrganish ishlari mustabid kommunistik tuzum belgilab qoʻygan chegara va doiradan chiqa olmadi. Sovet davrida matn zamiridagi obyektiv mazmunni roʻyiost ochib berishga izn berilmadi, bilaks, matn mafkura ruxsat etgan tamoyillar ostida tahlil etildi. Boshqacha aytganda, haqiqiy “matn tadqiqi” kommunistik tuzum zoʻravonligidan hurkib, Sharq qoʻlyozmalarini oʻrganish ishlariga tatbiq etilmadi. Natijada matnlarni chuqur oʻrganish ishlari orqa planga surilib qoldi. Tarixiy asarlar matni zamiridagi davr mafkurasi ruhi xaspoʻshlab oʻtildi. Tadqiqotchining yondashuvida tuzum tazyiqi yaqqol sezilib turdi. Ana shu koʻrinmas tazyiq olimlarni koʻproq manba-qoʻlyozma tavsifi va bayoni bilan cheklanishga, matn tubiga kirishdan ongli ravishda qochishga olib keldi. Shundan Oʻzbekistonda manbashunoslik sezilarli rivojlansa-da, matnshunoslik faqat nomigagina mavjud boʻlib keldi. U faqat matnning sof lingvistik tahlili bilan shugʻullanuvchi tilshunos olimlarning mulkiga aylanib qoldi. Xolbuki, adabiy manbalarni oʻrganishda matn zamiridagi gʻoya va yondashuvlar, muallif talqini asoslarini ochib berish va shu orqali asarning gʻoyaviy-badiiy ahamiyatini tadqiq etish muhim rol oʻynaydi va shuning bilan birga, asosiy eʼtibor matnda aks etgan badiiy tasvir vositalari, sheʼriy sanʼatlar, lisoniy va stilistik uslublar, implitsit va eksplitsit (botiniy va zohiriy) maʼnolarni tadqiq etish, matnlarni qiyosiy-tipologik jihatdan, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik talablaridan kelib chiqib kompleks tadqiq etishga qaratiladi. [Sirojiddinov, 2019: 6]

Matn tadqiqi qoʻlyozma asarning adabiy manba sifatidagi qimmatini baholash, badiiy asar matni haqida toʻliq tasavvur paydo boʻlishida obyektiv asos boʻlib xizmat qiladi. Qoʻlyozma, agar u sheʼrlar toʻplami boʻladigan boʻlsa, matnshunos oldida ikki vazifa koʻndalang turadi. Birinchisi, qoʻlyozmaning tarixi va taqdirini oʻrganish, ikkinchisi esa, undagi asarning matnini tahlil qilish. Birinchi holatda matnshunos manbashunoslar kabi qoʻlyozmaning tavsifiy belgilari, tuzilishi, tadqiq obyektiga aylanguncha boʻlgan davrdagi taqdiri, umumiy tekstologik belgilarini oʻrganadi. Ikkinchi vazifa matnshunosning bosh vazifasi boʻlib, matn tahlilini amalga oshiradi. Bu holatda uning oldida asarning badiiy



qimmatini belgilash uchun chuqur poetik tahlilni amalga oshirish, muallif g'oyaviy dunyoqarashini ochib berish va uning badiiy mahorati darajasini belgilash vazifasi turadi. Tadqiqotchi o'z maqsadiga erishish yo'lida muallifning diniy, falsafiy, badiiy tafakkur olamiga kirishga majbur. Agar qo'lyozma didaktik yoki so'fiyona mazmundagi asar bo'lsa, matnshunos muallif pozitsiyasini, uning o'z davri ijtimoiy muammolariga bo'lgan yondashuvini tadqiq etib, asarda tilga olingan voqealar, ta'limotlar talqinini obyektiv va subyektiv jihatlarini ochib beradi [Sirojiddinov, 2019: 21]. Muallif muayyan voqea-hodisani o'z davri, o'zi mansub toifaning qarashlaridan kelib chiqib talqin qiladi. Shunday ekan, matnda zamon siyosati va jamiyatning turli mafkuraviy ta'sirlari ostida shakllangan qarashlar, yondashuvlar aks etishi va turlicha baho berilishi mumkin. Muallif qarashi matnda aks etmasdan qolmaydi. Matnni tadqiq etishda unda aks etgan talqin yo'nalishiga qarab, davr siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, mafkuraviy yo'nalishlar, muallifning shaxsi, ijtimoiy mavqeyi, uning dunyoqarashi ochib beriladi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, matnni tadqiq qilishda tabdilning o'rni va ahamiyati ham kattadir. Chunki bu jarayonda tadqiqotchi xatoliklarga yo'l qo'ysa, asl manbaning mazmun-mohiyatiga putur yetadi. Bu jarayonga tadqiqotchilar mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Tabdil deb asar matni muallif yoki tarjimon davridagi tildan joriy tilga tarjima qilinishiga aytiladi. Bunda ayrim nashrga tayyorlovchilar tilning tarixiylikini bir qadar saqlab qolish hollari ham uchraydi. Avvalo, shu o'rinda, tabdil istilohiga sharh berib o'tish o'rinli. Tabdil "almashtirish", "o'girish" ma'nolarini anglatadi. Jahon matnshunosligida tabdilning "transkripsiya" va "transliteratsiya" deb ataluvchi usullari bor. Bu usullar tor ma'noda bir yozuvning ikkinchi bir yozuvga aynan o'zgartirilishiga aytiladi. Alibek Rustamov shunday yozgan edi: "Bir yozuvdagi matnni ikkinchi bir amaldagi yozuvda ko'chirishni shartli ravishda hozirgi ilmda "transliteratsiya" (harf ko'chirish) deyiladi. Ammo bu terminning asosiy ilmiy ma'nosi bir yozuvdagi harflarni ikkinchi yozuvda aynan aks ettirishdir.. "[Rustamov, 1982: 1]. Tabdil keng ma'noda eski alifboda bitilgan o'tmish bitiklarini joriy alifboda kitobxonlarga yetkazish usulidir. Bu sohaning nazariy masalalari bilan matnshunoslik shug'ullansa, uning amaliyoti bilan Alibek Rustamov ta'biri bilan aytganda "matnchilik" shug'ullanadi. Matnni tabdilga tayyorlash, birinchi navbatda, asarning asliyat nusxalari ustida ishlash, uni to'g'ri o'qish, ayniqsa, badiiy matn salohiyatini anglash tadqiqotchidan keng qamrovli bilim talab qilardi. Xususan, matnshunos tadqiqotchi badiiy metod yoki ijodiy metod tamoyillarini to'laqonli ravishda matniy tadqiq etishi lozim edi [Hayitmetov, 1997: 52-53].

Shuni aytib o'tish kerakki, XX asr ikkinchi yarmidan e'tiboran jahon filologik tadqiqotlarida yangicha yondashuvlar va paradigmalarning vujudga kelishi soha taraqqiyotini keskin ko'tarish bilan birga, fanlararo uzviylik va uyg'unlik masalalariga qat'iy rioya qilishni dolzarb masalaga aylantirdi. Matnshunoslik sohasiga kirib kelgan matn tabdili muammolari, ayni chog'da, sinergetika, semiotika kabi bir qancha yangi tadqiq metodlarining badiiy matn tabdili tadqiqida hal qiluvchi o'rinni egallashiga olib keldi. Matnshunoslik va manbashunoslikda asliyat va tabdil ilmi masalasi tadqiq etilishi zarur bo'lgan asosiy ilmiy.



muammolardandir. Shu bois xalqimizning ko‘p asrlik madaniyati, milliy qadriyatlari bilan bog‘liq mumtoz asliyalarni tabdil etish, ulug‘ mutafakkirlarimiz va shoirlarimizning asarlarini bugungi kun o‘quvchisining ehtiyojlarini hisobga olib tabdilini amalga oshirish, tabdil qilishning nazariy asoslari, mumtoz asarni matniy tadqiq etish kabi masalalar va ularing o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Asliyat va matn tabdili masalasi matnning takomil bosqichlarini aks ettirishi jihatidan muhim ilmiy muammolardandir. Dunyo matnshunosligida asliyat va tabdil muammolari ancha chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin mamlakatimizda yetarli darajada tadqiq etilgan emas. Bu fikrlarni Alisher Navoiy asliyalari va tabdiliga nisbatan ham aytish mumkin. Mustaqillik yillarida xalqimizning o‘tmish madaniy merosini yuzaga chiqarish, buyuk iste’dod sohiblari qoldirgan ulkan ilmiy-ma’naviy, adabiy merosni xalq mulkiga aylantirish sohasida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning mumtoz ma’naviy merosi matnshunoslik va manbashunoslik sohasining diqqat markaziga chiqdi. Shu jihatdan, Alisher Navoiy asarlarini eski o‘zbek yozuvidan joriy alifboga ko‘chirish saviya va sifatini tubdan ko‘tarish, matndagi iste’moldan chiqqan turkiy so‘zlarni tushuntirish, chet so‘zlar va diniy atamalarga izohlar berish, tabdil variantlarini yangicha tamoyil va usullarga tayanib amalga oshirish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasining eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ulug‘ shoir asarlari misolida asliyat va tabdil muammolari masalasini o‘rganishga katta ehtiyoj bor. Navoiy asarlarining so‘nggi tabdili bo‘lgan 10 jildli “To‘la asarlar to‘plami” 20 jildli “Mukammal asarlar to‘plami” tabdilidan farq qilmaydi. Hammaga ma’lumki, bu tabdillar ko‘p nuqsonlarga ega. Ularni bartaraf etmasdan turib, navoiyshunoslikni rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu paytgacha ushbu tabdillardagi xato va kamchiliklar kompleks tahlil qilinmadi [Abdulxayrov, 2023: 8].

O‘zbek matnchiligida XV asr oxiri yoki XVI asr boshlarida kitobat qilingan adabiy manbalarni o‘rganish, joriy imloga tabdil (transliteratsiya) qilish va ularni tabdil etish bilan bog‘liq katta salmoqqa ega ilmiy hamda amaliy tajriba to‘plangan. Xususan, Mir Alisher Navoiyning ulkan merosini tabdil qilish ustida olib borilgan amaliy harakatlar bir necha matnshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Istiqloq sharofati bilan mumtoz yozuvimizda bitilgan shoir asarlari nafaqat kirill alifbosida, balki lotin yozuvida ham o‘z ifodasini topayotir. Biroq bu tabdillarda, o‘z navbatida, shu imkoniyatlarga muvofiq, professional bilim va ko‘nikma yetishmasligi namoyon bo‘layotganligi ham sir emas. Ayni paytda, bu sohada qilinadigan vazifalardan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Shoir asarlarining joriy lotin yozuviga qilingan tabdillari kirill yozuvidagining o‘zi. Har bir yangi tabdil oldingilaridan mukammal bo‘lishi lozim. “Matnning aniqlik darajasi, kitobxon tomonidan tushunilish darajasi ijtimoiy masaladir, - deydi mashhur matnshunos olim S.Reyser. - Shu jihatdan matnshunosning xalq oldida katta mas’uliyati bor. Matnshunoslik masalalari bugun ijtimoiy-siyosiy masalaga aylanib bo‘ldi”[Reyser, 1978: 7].

Turli yillarga oid yuzdan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxaga ega muayyan asarning matn tarixini o‘rganmasdan, uning tili yoki badiiyatini yoritish borasida qanchalik zahmat chekilmasin bu tugal ish hisoblanmaydi. Ko‘p nusxali matn tarixini o‘rganish esa asarning





qo'lyozma, toshbosma nusxalarini turli tasniflar asosida guruhlash, har tamonlama qiyoslash va saralashdan boshlanib, oxiri- aniq va ishonchli dalillar bilan quvvatlangan ilmiy tanqidiy matnni tayyorlash bilan nihoyalanadi. Shundan so'nggina bu asar bo'yicha kelajakda qilinadigan tadqiqotlar, xoh adabiyotshunoslik, xoh tilshunoslik yo'nalishida bo'lsin, qat'iy ravishda tayyor ilmiy-tanqidiy matn asosida olib borilishi kerak. Matnshunos olim Shodmonov N. ayni muammoga e'tibor qaratib, uning yechimini "matn tasarrufi" tushunchasi bilan izohlaydi: "Adabiy manba tadqiq etilib, istifodaga kiritilgach, muallif va uning merosini "tashuvchilar" tomonidan yo'l qo'yilgan xato hamda nuqsonlar ular zimmasidan tadqiqotchi zimmasiga o'tadi. Shuning uchun manba tadqiqot doirasida to'g'ri tasarruf etilishi, nuqsonlar bartaraf qilinishi lozim. Tasarruf uchun, eng avvalo, matnshunoslik mafkurasi, ilmiy tafakkur shakllangan bo'lishi kerak. U yetarli darajadagi nazariy bilimlar bilan bir qatorda psixologik, mantiqiy va estetik tahlil, tasavvur, yechim topish malakalarini o'zlashtirish orqali hosil qilinadi" [Shodmonov, 2013: 15]. Adabiy manbalarni tadqiq qilishda o'z qoidalariga amal qilinishi lozim. Afsuski, ko'p hollarda bu qoidaga amal qilinmaydi. Ba'zan mumtoz adabiyot manbalarining eski o'zbek yozuvidan joriy alifboga tabdilida, mazkur matnlarning talqinida yoppasiga savodsizlikni kuzatamiz. "Yoppasiga" deyishimizdan maqsad, tabdil qilingan ayrim matnlardagi xatolar nafaqat shaklda, balki ma'noda ham, talqinda ham bir yo ikki o'rinda emas, ketma-ket, qatorasiga sodir etiladi. Ayniqsa, adabiy so'z, jumla, matnlarni o'zbekchalashtirishda o'ta e'tiborsiz va mas'uliyatsiz yondashuvlar, tarjimada o'zbek tilini dominant sifatida bilmaslik va natijada o'zbek tilining tabiatini hisobga olmasdan chet tillarga sun'iy tarzda moslashtirishlar, maxsus tushuncha va istilohlarni izohsiz, bilib-bilmasdan qo'llash tufayli qo'pol xatolarga yo'l qo'yiladi. Masalan, joriy yozuvimizda va og'zaki nutqda amalda bo'lgan, tilimizga allaqachon o'zlashib ketgan "Olloyor" so'zini yozuvda "Ollohyor", "Allohyor" deb yozish va zo'rma-zo'raki talaffuz qilishga o'zni majburlashning sababi nimada? [Zohidov, 2023: 109] Adabiyotshunos olim N.Jabborov o'zining "Adabiy manbalarda matn tahriri masalasi" maqolasida rus olimi B.M.Istrinning "matn tahriri"ni ta'riflab aytgan quyidagi so'zlarini keltiradi: "Tahrir deb adabiy yodgorlikning shunday qayta ishlanishiga aytiladiki, bunda u qandaydir ijtimoiy voqelik talabiga ko'ra yoki ko'pincha adabiy ehtiyojdan va kitobsevarning tab'idan kelib chiqib yoxud til sofligiga erishish niyatida aniq maqsadga qaratilgan holda amalga oshiriladi" [Jabborov, 2013: 6]. Maqola davomida tahrirning to'rtta turi – g'oyaviy, uslubiy, asardagi ma'lumotlarni boyitishga qaratilgan va bir necha turni o'zida mujassam etgan qorishiq tahrirlar o'zbek adabiyoti materiallari asosida tadqiq etilgan. Xo'sh, matn tahririning mazkur tasnifidan kelib chiqilsa, yuqorida keltirilgan "Ollohyor" yoki "Allohyor" shakli tahrirning qaysi turiga mansub? Garchi izohlash biroz qiyinchiliklar tug'dirsa ham, bu so'z shaklida g'oyaviy tahrirga yo'l qo'yilgan, degan bo'lardik. Negaki, joriy yozuvimizda va og'zaki nutqda allaqachon "Olloyor" shaklida o'zbek tilining lug'at fondiga aylangan bu so'zni faqat asliyatdagi soflikni saqlashga urinish deb baholasak, boshqa bir muhim jihatni e'tibordan soqit qilgan bo'lamiz. "Olloh" (الله) lafzidagi "h" (ه) harfi asliy, ya'ni o'zak harflaridan biridir. Arabcha matnda "Olloh"dagi "h" tushib qolsa, لا shakli harakat – qisqa





unlilarning joylashishiga ko‘ra turlicha o‘qilib, turlicha (masalan: “emasmi”, “ogoh bo‘l, ey...”, “magar” kabi) ma’nolarni ifodalashi mumkin. Tabiiyki, arab tilida “Olloh” lafzidan “h” harfining tushib qolishi qo‘pol xato hisoblanib, ma’noning butunlay o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. O‘zbek tilida ham bu so‘zning o‘zi yolg‘iz kelganida “h” harfi hech qachon tushib qoldirilmaydi. Ammo o‘zbek tili talaffuziga o‘zlashgan Olloyor, Ollobergan, Olloquli kabi qo‘shma so‘zlarda va oxiriga “ollo” lafzi qo‘shilgan – Abdullo, Nasrullo, Samadullo kabi ismlarda “h”ning borligi yoki yo‘qligi ma’noga ta’sir qilmaydi. Qolaversa, tilimizda ayni holatda “he” tovushining qo‘llanishi talaffuzni qiyinlashtiradi. Shuning uchun bu “h” harfi yozuvda ham aks ettirilmagan. Agar – asliyat yozuvida mavjud bo‘lgani uchun bu harf o‘zbek yozuvida ham, bu tovush o‘zbek nutqida ham aks etishi kerak – deyilsa, ona tilimiz kamsitilgan bo‘ladi. Yoxud ba’zilarining: “Olloh” lafzidan “h” tushib qolsa, (ﻫ) shaklidagi (ﻻ) inkor yuklamasi sababli (?) “Olloh yo‘q” degan ma’noga dalolat qilib qolishi mumkin” degan mutloq asossiz gumonlariga kelsak, bu “ehtiyotkorlik” avvalo, savodsizlik oqibatidir. Qolaversa, muayyan tilning talaffuz qoidalaridan kelib chiqqan mazkur holatni boshqa tildagi lisoniy hodisalarga qorishtirib, uni e’tiqodga daxldor masala deb qarashda nafaqat savodsizlik, balki kaltabinlik ham bor. Sog‘lom aqida ko‘r-ko‘rona qo‘rquv, gumon bilan emas, xolis ilm bilan barpo bo‘ladi. Dunyodagi barcha xalqlar, qabila-elatlar o‘ziga xos tili bilan yaratilgan. Ona tili, uning tabiati, barcha qonun-qoidalari har bir xalqning belgilab qo‘yilgan daxlsiz huquqi. Bu haqqa tajovuz qilish, haqiqatga qarshi borishdan boshqa narsa emas [Zohidov, 2023: 111].

Arabcha izofali birikmalar imlosida ham tilimizda xilma-xilliklar kuzatilyapti. Bu muammoni bundan yarim asrlar oldin H. Hikmatullayev “Yozma yodgorliklarni yozish qoidalariga doir” maqolasida ko‘tarib chiqqan edi. Sharqshunos olim mazkur maqolasida akademik I.Yu.Krachkovskiy va professor A.A.Romaskevich ishlab chiqqan transliteratsiya sistemasi asosida ayrim arabcha ifodalar, shaxs va asarlar nomining yozilishi bo‘yicha konkret tavsiyalar bergan. O‘nta paragrafdan iborat tavsiyalar majmuida H.Hikmatullaev Sharq adabiyoti yodgorliklarini nashrga tayyorlashda rus sharqshunoslari qo‘llagan transliteratsiya qoidalarini o‘zbek tiliga xos ba’zi mustasnolarni kiritgan holda bayon etgan. Maqolada tavsiya etilgan takliflarga umuman qo‘shilgan holda, ularning ba’zilariga mavzumiz nuqtai nazaridan munosabat bildiramiz. “Forscha izofa i||yi o‘zidan oldingi so‘zdan chiziqcha bilan ajratiladi (qalam-i man; xona-yi nav)... Arabcha aniqlikni bildiruvchi old qo‘shimcha vaslaliq bo‘lsa, oldi va ortidagi so‘zlardan defis bilan ajratiladi (masalan: fīl-Qonun; Ẓy-l-Qarnayn; Aḅy-l-Qosim kabi)” [Zohidov, 2023: 15]. Fors va arab tilidagi izofali birikmalarning yasaliq qoidalari kirill yozuvidagi ushbu transliteratsiyada ideal shaklda aks ettirilgan. Muayyan mutaxassislar doirasida istifoda qilinadigan ilmiy tadqiqotlarda bu transliteratsiyadan foydalanish mumkin. Ammo maqolada adabiy yodgorliklarning keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan ommabop nashrida ham bu qoidaning saqlanib qolishi to‘g‘risida gapirilganki, muallifning bu fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi. Negaki, tilimizga o‘zlashib ketgan ro‘yi zamin, jumlai jahon, poyi qadam kabi birikmalardagi i||yi forscha



izofa ko'rsatkichini chiziqcha bilan ajratish fors tiliga nisbatan to'g'ri bo'lar, lekin o'zbekcha matnga nisbatan bir talay noqulayliklarni keltirib chiqaradi. [Zohidov, 2023: 12].

Shuningdek, arabcha izofali birikmaning tavsiya qilingan shaklini ham ommabop nashrlarda foydalanish noo'rin. H.Hikmatullaev "Devonu lug'otit turk" nomi transkripsiya asosida yozilgan bo'lsa ham kamchilikdan xoli emas, deb hisoblaydi va aytadiki, "turk" so'ziga taalluqli bo'lgan "it" (to'g'rirog'i old qo'shimcha "al" vaslalik bo'lgani uchun bu shaklda assimilyatsiyaga yuz tutgan va undan keyingi shamsiya harfi "t" ikkilangan) "lug'ot" so'ziga qo'shib yozilgan. Aslida "it" ("al") old qo'shimchasi har ikki tomondan defis (-) bilan ajratilishi kerak, deydi. [Zohidov, 2023: 113]. Arabcha izofali birikmalarning rus sharqshunoslari tomonidan qo'llangan, so'ngra o'zbek olimlari tomonidan qabul qilinib [Rustamov, 1970], ba'zi ilmiy tadqiqotlarga joriy qilingan va asta-sekin ommaviy nashrlarda ham qoidaga aylanib qolayotgan bu shaklning tilimiz tabiatiga nomuvofiq bo'lgan bir nechta jihatlari bor. Birinchidan, mazkur shakl orfografik jihatdan noqulay. Asliyat yozuvida tabiiy ravishda bitta tushunchani ifodalagan butun birikma (masalan : محبوبُ القلوب) o'zbek tilining kirill yozuviga muvofiqlashtirilgan alifbosida ajratuvchi ikkita kichik chiziqcha vositasida uch mustaqil bo'lakka bo'lib tashlangan: (mahbubu) - (l) - (qulub). Ikkinchidan, tavsiya qilinayotgan bu shakl fonetik jihatdan tilga og'ir. Asliyat talaffuzida ikki zarb (mahbubul || qulub) o'qiladigan birikma tavsiya qilinayotgan shaklda uchta pauza bilan o'qishni taqozo qilyapti. Chunki chiziqchalar arab tilidagi izofa qoidasini yozuvda aks ettirishi jihatidan ma'noga ega. Ammo o'zbek tili qoidalariga nisbatan olinsa, mazkur holda bu chiziqchalarning qo'llanishi "yengil pauza"dan boshqa ma'noga dalolat qilmaydi. O'zbek tili uchun maqsadsiz har xil belgilar orqali qilinadigan bunday talaffuz tilimiz tabiatiga yot. Uchinchidan, o'zlashayotgan so'z o'z qatlam leksikasiga moslashish uchun mezbon til qonuniyatlarini to'la qabul qilishi, balki to'la ravishda uning qoidalariga bo'ysundirilishi shart. O'zlashma so'zning imlo va talaffuzi o'z leksika tarkibida noqulayliklar tug'diradigan murakkabliklardan xoli, imkon qadar sodda va ixcham bo'lishi lozim. Ta'kidlab aytamizki, tor doirada, muayyan ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda nisbiy bir transkripsiyani ifodalash uchun bu shaklni qo'llasa bo'lar. Ammo ommaviy tartibda bunday shaklning joriy etilishi tilimizning talaffuz tabiatini buzadi, har tomonlama qiyinchilik tug'diradi. [Zohidov, 2023: 114]. Chetdan kirib kelayotgan so'z imlosini qabul qilishda chet tilning grammatik xususiyatlari emas, balki o'sha so'zning o'qilishi va uni o'zbek tili talaffuziga moslashtirish e'tiborga olinishi lozim. Aks holda, chet so'z o'zlashayotgan tilning emas, o'zining lisoniy qonuniyatlariga qanchalik muvofiqlashtirilsa, uning "muhojir"ligi shunchalik davom etadi. Bunday harakat tabiiy jarayonni sun'iy qiyinlashtirishdan boshqa narsa emas. H.Hikmatullayev ikkinchi qismi "-olloh", "din", "abd-" (masalan: Abdulloh, Nuriddin, Abdurahmon) so'zlaridan yasalgan qo'shma otlar qadimdan o'zbek tiliga singib ketganligi va o'zbek tilining lug'at fondidan joy olganligi uchun, istisno tarzida, qanday qabul qilingan bo'lsa, shunday yozamiz" der ekan, chet so'zlarni o'zlashtirishning eng to'g'ri prinsipini tilga olgan. Haqiqatan ham tilimizga o'zlashayotgan so'z toki qanday o'qilsa, shunday yozilmas ekan, bu so'zning tilimizga singib, o'zbek tilining lug'at fondidan joy olishi amri mahol.



Mumtoz adabiy manbalarda ko‘p uchraydigan arabiy matnni o‘zbek tiliga o‘girayotgan tarjimon, avvalo, har ikkala til qonuniyatlardan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Jumladagi har bir so‘zning lug‘aviy ma‘nosini bilish matn mazmuni hali to‘la anglandi, degani emas. Asar va uning muallifi haqida butun tasavvur hosil bo‘lmaguncha tarjimaning to‘g‘riligi ishtibohli bo‘ladi. Shuning uchun ham bir satr, jumla, xat boshini o‘qib chiqish bilan kifoyalanmasdan, bir nechta jumla, balki butun boshli bo‘limni o‘qib, tushungandan so‘nggina tarjimaga urinish ishonchliroq yo‘ldir. Chunki matn ruhi qismda emas, butunda aks etadi. Matn ruhi anglansa, so‘zlarni o‘rni-o‘rniga qo‘yish osonlashadi. Aks holda, mazmun talab qilgan so‘zning boshqa muqobili tanlanib, ma‘no xiralashadi. Bu vaziyatda boshqa og‘riqli nuqta ham bor. Tarjimon arabiy matnni butun nozikliklari bilan tushunib, his qilib, mazmunni ona tilida u darajada bera olmasa-chi?! Tabiiyki, bu holatda, o‘z tili tarixi, tabiatini bilmaslik, his qilmaslik Yaratuvchi tomonidan har bir millatga berilgan ona tilini kamsitishga hujjat bo‘lolmaydi, albatta. Shunday ekan, ayb tarjima qilinayotgan tilda emas, tarjimonda! Tarjimon ona tilining nozikliklarini tarjima qilayotgan ajnabiy tildan kam his qilmasligi kerak. Shundagina o‘zi tarjima qilayotgan matnning muallifi va tarjimaga muhtoj o‘quvchilarning haqqini ado qilgan bo‘ladi. Misol uchun, fikrini oliy maqomda, fasohat va balog‘at bilan, “javomi’ul kalim” uslubida arab tilida izhor qilayotgan donishmand ayni fikrni o‘zbek tilida nima uchun no‘noq ifodalashi kerak?! Yo‘q, bu xato na donishmandning, na o‘zbek tilining, balki tarjimonning chekiga tushadi. [Zohidov, 2023: 117].

Adabiy manbalarni tadqiq qilishdagi asosiy masalalardan yana biri, yetuk mutaxassisning mavjud bo‘lishidir. Yetuk mutaxassis bo‘lish har bir soha vakilining pirovard maqsadidir. Sog‘lom inson o‘zi mashg‘ul bo‘lgan ishini mukammal darajada bajarish harakatida bo‘ladi. Agar qilayotgan ishi tabiatida mavjud qobiliyatiga muvofiq bo‘lsa, bu ish uning suyuqli mashg‘ulotiga aylanadi. Suyukli mashg‘uloti bilan birgalikda davomli rivojlanib borgan shaxs mutaxassis bo‘lib yetishadi. Hamma zamonlarda, xususan, kun sayin ilm-fan olamidagi muammolar xalqaro miqyosda globallashib borayotgan bugungi kunda yer yuzidagi barcha jamiyatlar o‘z sohasining yetuk mutaxassislariga har qachongidan ham muhtojdir. Chunki o‘z ishining ustasiga aylangan inson o‘zi egallagan soha hududida “podshoh” misoli o‘rin egallaydi. Hukm, qaror, tavsiya, taftish, baholash, tajribaga asoslangan bashorat (prognoz) kabi to‘la boshqaruv irodasiga haqli ravishda vakolatli bo‘lgani uchun ko‘pchilik uning yordamiga hojat sezadi. Bu ixtisoslik malakasini to‘la egallagan har bir soha vakilining maqomidir [Zohidov, 2023: 27].

Ming yillik adabiy merosimiz qo‘lyozma kitob shaklida avloddan avlodga o‘tib, millatning madaniy taraqqiyotini belgiladi. Bu qadimiy manbalarda ota-bobolarimizning e‘tiqodi, turmush tarzi, tili aks etgan. Ajdodlar e‘tiqodini o‘rganish avlodni zalolatdan ogoh etadi, oqni qoradan ajratishni o‘rgatadi. Ularning turmush tarzi bilan tanishish to‘g‘rilikdan, maqsad yo‘lida sobitqadam bo‘lishdan saboq beradi. Ota-bobolarimizning tilini tushunishimiz ertamiz porloqligiga ishonch uyg‘otadi. Ammo shuncha yaxshiliklarni bag‘riga joylagan bobomeros qo‘lyozma kitoblarning haqiqiy vorisi bo‘lish oson emas. Bu mashaqqatli yo‘lning avvalidagi birlamchi vazifa – qadimiy qo‘lyozmalarni o‘qib,



tushunadigan zukko manbashunos, tirishqoq matnshunos mutaxassislarni yetishtirish. Bu saf qancha kengaysa, keyingi ishlar shunga muvofiq tartibga tushadi, natijalar aniqlashib boradi. So'nggi yillarda mamlakatimizda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatining tashkil etilishi, o'zbek zaminida tavallud topib, ilmiy faoliyat olib borgan buyuk alloma va mutafakkirlar merosini ilmiy tadqiq etish va uning natijalaridan amaliy foydalanish, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug' alloma va mutafakkirlarimizning ko'plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni tadqiq qilish tizimini yanada takomillashtirish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish haqidagi Hukumat qarorlari ham ayni maqsadning nechog'li dolzarb ekanini tasdiqlovchi hujjatdir. Bundan kelib chiqadiki, bugungi ijtimoiy-siyosiy sharoit qadimiy manbalarni ilmiy istifodaga olib kiradigan tajribali manbashunos va matnshunos mutaxassislarning ilmiy faoliyati ommalashuvini taqozo qilyapti. Soha ta'lim yo'nalishi va ixtisosligi malaka talablarining nazariy va amaliy jihatdan tizimga tatbiq qilinishi bu ehtiyojni qondiruvchi bosh omillardan biridir.

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasida sifat jihatidan yetuk mutaxassislarning ko'payishi o'zbek matnshunosligining asosiy obyekti bo'lgan qo'lyozma va toshbosma adabiy manbalarni ilmiy muomalaga olib kirish, ana undan so'ng ilmiy muomalaga kiritilgan yangi manbalar ustida filologiyaning boshqa sohalarida ilmiy tadqiqot ishlarining kengayishi, natijalarning butun ta'lim tizimiga ta'siri qadimiy qo'lyozma merosimizning xalqimiz orasida ommalashuviga sabab bo'ladi[Zohidov, 2023: 27]. Barcha sohalar kabi filologiyada ham shunday maqomdagi mutaxassislarga ehtiyoj katta. Chunki bunday mutaxassislarning fanning klassik an'analarini fundamental bilish imtiyoziga ega bo'lish bilan birga muammolarga kreativ yondashuv layoqatini ham o'zlashtirgan bo'ladilar. Misol uchun, manbashunos eng qadimiy manba bilan zamonaviy manba o'rtasidagi genetik aloqani tiklay oladigan darajada ilmiy bazaga ega bo'lsa, u mutaxassisdir. Negaki, qadimiy manba bilan zamonaviy manba o'rtasida necha-necha zamonlar bor, zamonlarda qanchadan-qancha manbalar yaratilgan. Ma'lum manbaning ma'lum davrda yuzaga kelish omillari va uning o'zidan keyingi manbaga ta'sirini o'rganib, manbalarning silsilaviy genezisini aniqlash uchun yuz yil oralig'idagi 20-30 ta manbani bilish kifoya qilmaydi. Buning uchun sal kam ming yil oralig'idagi yuzlab manbalar haqida tavsifiy emas, fundamental asosdagi bilimga ega bo'lish talab etiladi. Albatta bunday fundamental bazaga ega bo'lgan shaxs uchun muammoni tug'dirgan vaziyat ayni paytda muammoning yechimi hamdir. Chunki u chala mutaxassislarga o'xshab an'anaga sig'inadigan mutassib (konservativ) emas. Balki u muammo atrofida tug'ilgan va muammoning yechimiga qaratilgan qarorini vaziyatdan kelib chiqib belgilaydi. Qizig'i, ijodkorona yondashuv bilan, kutilmagan bir tarzda qabul qilingan bunday qarorlar hamisha muammoning to'g'ri yechimini topishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, biz bugungi kunda adabiy meros tadqiqi va targ'ibi yo'lida bilib-bilmay sodir etilayotgan nuqsonlarning sababini yuqori saviyada saboq beruvchi ustozlarning kamligi, shuning uchun ularni jon qulog'i bilan tinglovchi talabalarning undan-





da kamligi bilan izohlasak, muhim jihatni e'tibordan soqit qilgan bo'lamiz. Muhimi, qadimiy manbalarni o'rganish va o'rgatish ishiga munosabat o'zgarishi kerak. Shundagina olimlarimiz ta'kidlagan matnshunoslikning sistemali yaxlit nazariyasi va ilmiy-metodologik mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim standartlari, o'quv rejalarida birinchi blok fanlar qatorida sanaladigan «Chet tillar» tarkibiga sharq tillarini ham kiritish, ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashdek zahmatni har tomonlama moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, jumhuriyat miqyosida matnshunoslik hay'atini tuzish, matnlarni tayyorlaydigan va chop etadigan mutaxassis hamda nashriyotlarning vakolat darajasini belgilash kabi masalalarga jiddiyroq e'tibor qaratiladi. Munosabat jiddiylashgach sohaga bevosita va bilvosita aloqador kishilar yuqorida sanalgan masalalarning amaliy yechimini «ushalmas orzu» degan gumon bilanmas, balki ertaga aniq yuzaga chiqadigan real vaziyat taqozosi o'laroq qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulxayrov M. Asliyat va tabdil muammolari. T.: "Adast Poligraf" nashriyoti, 2023. 204 b.
2. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. - T.: O'qituvchi, 1997. 148 b.
3. Jabborov N. Adabiy manbalarda matn tahriri masalasi.//Maqolalar to'plami. Qarshi, "Nasaf" nashriyoti, 2013. 9 b.
4. Reyser S.A. Osnovi tekstologii. Izd.2-e. L., Prosveshenie, 1978. 176 b.
5. Rustamov A. Matnchiligimizdagi nuqsonlar//O'zAS, 1982-yil, 3-sentyabr, № 36 (2672).
6. R.Zohid. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. O'quv qo'llanma. T.: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2023. 235 b.
7. Sh.Sirojiddinov. Matnshunoslik saboqlari. O'quv qo'llanma. T.: "Navoiy universiteti"NMU, 2019. 127 b.
8. Shodmonov N. Adabiy manba va matn tasarrufi.//. Adabiy manba: o'rganishning zamonaviy tamoyillari va nashr muammolari. Maqolalar to'plami.-Qarshi, "Nasaf",2013. 12 b.